

BETTA TALASEMIYA KASALLIGI BILAN KASALLANGAN BOLALARDA OVQAT HAZM QILISHDAGI MUAMMOLAR

Izzatullaev Sanjar Anvarovich

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali

Pediatric kafedrasida assistenti.

Avazov Bekzod Xamro o'g'li

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali

Pediatric kafedrasida assistenti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15372789>

Annotatsiya. Mazkur maqolada betta talasemiya kasalligiga chalingan bolalarda ovqat hazm qilish tizimi faoliyatidagi o'zgarishlar chuqur tahlil qilinadi. Betta talasemiyaning organizmga, ayniqsa jigar va oshqozon-ichak traktiga ko'rsatadigan patofiziologik ta'siri, temir moddasining ortiqcha to'planishi natijasida yuzaga keladigan asoratlar, ovqat hazm qilish fermentlarining yetishmovchiligi, parhez muhimligi va ularni davolash yo'llari ilmiy manbalar asosida ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, bolalarning umumiy jismoniy va ruhiy rivojlanishida yuzaga keladigan muammolar ham tahlil qilinadi. Maqolada bu holatni erta aniqlash, to'g'ri tashxis qo'yish va gastroenterologik yondashuvni kompleks tarzda qo'llash zarurligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: Bettta talasemiya, bolalar sog'lig'i, ovqat hazm qilish, temir to'planishi, gepatotoksik ta'sir, ferment yetishmovchiligi, parhez

Betta talasemiya — gemoglobinning betta zanjirlaridagi genetik nuqson tufayli yuzaga keladigan irsiy gematologik kasallik bo'lib, asosan bolalik davrida aniqlanadi va hayot davomida murakkab klinik belgilar bilan kechadi. Bu kasallikning asosiy belgilaridan biri surunkali gemolitik anemiya bo'lsa-da, uzoq muddatli qon quyishlar va temir to'planishi natijasida turli tizimlarda, ayniqsa ovqat hazm qilish tizimida jiddiy muammolar yuzaga keladi. Bolalarda bu holat umumiy o'sish va rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Kasallikning surunkali kechishi natijasida organizmda temir ortiqcha miqdorda to'planib boradi. Qon quyish terapiyasi bu bolalar uchun zarur bo'lsa-da, natijada har bir birlik qonda mavjud bo'lgan temir organizmga kirib, jigar, yurak, oshqozon osti bezi, ichak va boshqa a'zolarida to'planadi. Temir toksik xususiyatga ega bo'lib, u jigar parenximasini zararlaydi, bu esa hepatomegaliya, jigar fermentlarining faollashuvi, sariqlik, ishtaha yo'qolishi, ko'ngil aynishi, og'irlik hissi kabi simptomlarga olib keladi. Jigar faoliyatining buzilishi ovqat hazm qilish uchun muhim bo'lgan safro ishlab chiqarish va ajratish jarayonini ham izdan chiqaradi.

Natijada yog'lar yomon hazm bo'ladi, ich ketishi va steatoriya (yog'li najas) rivojlanadi.

Oshqozon osti bezi ham temir ortiqchasining nishoni hisoblanadi. Bu bezning eksokrin funksiyasi sustlashadi, ya'ni tripsin, amilaza, lipaza kabi fermentlar yetarli darajada ishlab chiqarilmaydi. Bu esa asosiy oziq moddalarning (uglevod, oqsil, yog') yetarli parchalanmasligiga, ularning yomon so'rilishiga, bola organizmida vitamin va minerallarning yetishmovchiligiga olib keladi. Ayniqsa A, D, E va K vitaminlarining tanqisligi kuzatiladi.

Bolalarda tez-tez qabziyat va diareya almashib turadi, qorinda og'riq, dam bo'lish holatlari uchraydi.

Betta talasemiyali bolalarda yuqoridagi muammolar natijasida ishtaha pasayadi, ovqatdan tez to'g'yish, ba'zida ovqatga nisbatan naftrat hissi paydo bo'ladi.

Bu holat ularning umumiy rivojlanishiga salbiy ta'sir qiladi. Shu bois, bunday bolalar uchun to'g'ri va muvozanatli ovqatlanish rejimini tuzish muhim. Parhezda temirga boy mahsulotlar (go'sht, jigar, ismaloq) cheklanadi. Aksincha, kaltsiy, rux, vitaminlarga boy, ammo temir tarkibi kam bo'lgan mahsulotlar (sut, pishloq, tuxum oqi, sabzavotlar, guruch) afzal ko'riladi. Bunday bolalarga ovqatni kam miqdorda, ammo tez-tez berish tavsiya etiladi.

Shuningdek, ovqatlanish bilan birga ovqat hazm qilish fermentlari (mezim, pankreatin) va gepatoprotektorlar (ursodezoksixol kislotasi, silimarin) buyurilishi mumkin.

Parhezga qat'iy rioya qilinmasa, organizmdagi vitamin va minerallar tanqisligi chuqurlashib, bola umumiy immuniteti pasayadi, tez-tez kasallanadi, rivojlanishda ortda qoladi. Shuning uchun ota-onalar, pediatr va gastroenterolog mutaxassislar betta talasemiyali bolalarning ovqat hazm qilish tizimidagi o'zgarishlarga doimo e'tiborli bo'lishlari zarur.

Zamonaviy tibbiyotda bu kasallikka qarshi kelator terapiyasi orqali temir moddasini cheklash, vitamin-mineral komplekslari bilan davolash va ovqat hazm qilish tizimi faoliyatini qo'llab-quvvatlash muhim strategiyalar sirasiga kiradi. Bundan tashqari, psixologik yordam ko'rsatish ham ahamiyatlidir, chunki ovqatlanishdagi muammolar bolalarda ruhiy tushkunlik, xavotir va ijtimoiy chekinish kabi holatlarga olib kelishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, betta talasemiyali bolalarda ovqat hazm qilish tizimi bilan bog'liq muammolar ushbu kasallikning ajralmas qismi hisoblanadi. Bunday muammolarni erta aniqlash, ularga gastroenterologik nuqtai nazardan yondashish, parhezni to'g'ri tashkil etish va simptomatik davolash vositalarini qo'llash bolalarning hayot sifatini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

REFERENCES

1. Rund, D., & Rachmilewitz, E. (2005). Beta-thalassemia. *New England Journal of Medicine*, 353(11), 1135–1146.
2. Cappellini, M. D., Cohen, A., Porter, J., et al. (2014). Guidelines for the Management of Transfusion Dependent Thalassaemia (TDT). *Thalassaemia International Federation*.
3. Borgna-Pignatti, C., & Galanello, R. (2004). Thalasseмии and related disorders: Quantitative disorders of hemoglobin synthesis. *Wintrobe's Clinical Hematology*.
4. Mahmudov, D. R. (2019). Bolalarda talasemiya va uning asoratlari. *Tibbiyot va hayot*, №2, 43–46.
5. Qodirov, M. N. (2021). Betta talasemiyali bolalarda ovqatlanish xususiyatlari. *Pediatric amaliyoti*, №3, 21–24.
6. Akhmedova, G. S. (2020). Ovqat hazm qilish tizimi kasalliklari: pediatriya amaliyotida yondashuvlar. *O'zbekiston pediatriya jurnali*, №4, 35–38.